



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Farg'ona viloyatida
kichik tadbirkorlik**


2022-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar


Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **59,4** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,3** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martida **1,9** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5** foizga kam demakdir.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **760** ta, sanoatda **416** ta, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **158** ta, qurilishda **146** ta, boshqa turdag'i xizmatlarda **146** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 94,1

Sanoat 35,0

Qurilish 85,4

Investitsiya 73,2

Savdo 86,9

Xizmatlar 18,5

Eksport 30,7

Import 50,6



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

41 074




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

1 892

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 16,0 %, Qo'qon shahri – 9,6 %, Marg'ilon shahri – 6,3 %, Oltiariq tumani – 6,2 %, Toshloq tumani – 5,8 %, Dang'ara tumani – 4,9 %, Beshariq tumani - 4,5 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2021- y. yanvar-mart ■ 2022- y. yanvar-mart

Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

760 ta

Sanoatda

416 ta

Qurilishda

146 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
91 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,3 birlikni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 23,3 birlik, Quvasoy shahrida 20,5 birlik, Qo'qon shahrida 19,4 birlik, Marg'ilon shahrida 17,3 birlik, So'x tumanida 15,8 birlikni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),
2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra***

Eng yuqori ko'rsatkich

Farg'ona shahrida - 23,3 birlik.


O'rtacha ko'rsatkich

Uchko'prik tumanida- 13,3 birlik.

Past ko'rsatkich

Beshariq tumanida – 8,6 birlik.

2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida **23,3** birlik, Quvasoy shahrida **20,5** birlik, Qo'qon shahrida **19,4** birlik, Marg'ilon shahrida **17,3** birlik, So'x tumanida **15,8** birlik, Quva tumanida **14,8** birlik, Dang'ara tumanida **14,8** birlik, Furqat tumanida esa **14,6** birlik ni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 59,4 %ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-martida 61,9 %).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 52,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 30,7 %ini tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagagi ulushi


2022 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, %da



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bag'dod tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida 100,0 %, Marg'ilon shahrida – 81,4 %, Oltiariq tumanida – 75,1 % va Uchko'priq tumanida – 68,5 %ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 3,1 %ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumanida – 100,0 %, Rishton tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, va Dang'ara tumanida 99,7 %. Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahrida – 12,2 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **181,5** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **50,6 %**ini tashkil etdi.




2022 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 190,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo'qon shahri (1463,9 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (1180,9 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (967,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (203,4 mlrd. so'm) va Beshariq tumani (177,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (14,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,0 %ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Beshariq tumani (100,0%), So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahri (100,0 %), Buvayda tumani (83,3%), Bag'dod tumani (79,9%), Uchko'prik tumani (78,0%), O'zbekiston tumani (55,2%) va Dang'ara tumanlari (47,5%) tashkil etdi. Farg'ona tumanida (9,1%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 043,3** mld. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **86,9** %ini tashkil etib. 2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **101,5** %ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʼsish surʼati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Margʼilon shahri (831,7 mld. soʼm), Qoʼqon shahri (786,8 mld. soʼm), Fargʼona shahri (679,3 mld. soʼm), Quva tumani (184,9 mld. soʼm), Uchkoʼprik tumani (143,7 mld. soʼm) va Oltiariq tumanlarida (137,5 mld. soʼm) hissasiga toʼgʼri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 340,7 milliard so'mni** yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **85,4 %ini** tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **98,5 %ni** tashkil qildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (305,9 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (161,0 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (159,3 mlrd. so'm), Buvayda tumani (84,3 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (81,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (58,7 mlrd. so'm), Toshloq tumani (56,0 mlrd. so'm) hamda (50,9 mlrd. so'm) O'zbekiston tumanlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **895,2** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **18,5** %ini tashkil qildi va oʼsish surʼati 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan **108,7** %ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Qoʼshtepa tumani (169,0 mlrd. soʼm), Buvayda tumani (88,4 mlrd. soʼm), Furqat tumani (84,1 mlrd.soʼm), Yozyovon tumani (83,4 mlrd. soʼm), Oltiariq tumani (64,7 mlrd. soʼm), Farg’ona shahri (55,3 mlrd. soʼm) va (51,4 mlrd. soʼm) Rishton tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-martida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 86,1 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,4 %ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,2 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,7 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 %ni tashkil qildi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1815 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 638 (35,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni joriy davrda qulay deb baholadi. 1091 (60,1 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 86 (4,7%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,0 % (54 ta), sanoatda – 23,1 % (419 ta), qurilishda – 9,5 % (173 ta), savdoda – 34,8 % (631 ta), xizmatlar sohasida – 29,6 % (538 ta) ni tashkil etdi.


2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da






Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (340 ta), Qo'qon shahri (218 ta), Marg'ilon shahri (171 ta), Oltiariq tumani (113 ta), Farg'ona (90 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning I chorak kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022- yilning I chorak kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 42,5 %ni, savdoda 37,4 %ni, sanoatda 33,9 %ni va qurilishda 33,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 62,4 %ni, sanoatda 62,3 %ni, savdoda 58,2 %ni, qurilishda 57,2 %ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 48,5 %ni, savdoda 44,5 %ni, qurilish 43,9 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda 56,3%ni, xizmatlar sohasida 55,0%ni savdoda 53,1 %ni qurilish 52,0 %ni, tashkil etdi.

